



POLEMICAL DEBATES AND THEIR GENRE FEATURES

E'tikodkhan Atakulova,

UzJOKU, Teacher of the Department of Media Theory and Practice

Abstract

The article describes the main typological features of polemical speech and polemical genres. Polemical debates are shown on the basis of examples and given through concrete examples.

Keywords: polemic, dialogue, monologue, polylogue fact, culmination, press, polemist.

POLEMIK BAHS MUZORALAR VA ULARNING JANR HUSUSIYATLARI

E'tiqodxon Ataqulova,

O'zJOKU, Media nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya

maqolada polemik nutqning asosiy tipologik xususiyatlari hamda polemik janrlar tasvirlangan. Polemik bahslar misollar asosida ko'rsatilib, aniq misollar orqali berilgan.

Kalit so'zlar: polemika, dialog, monolog, polilog fakt, kulminatsiya, matbuot, polemist.

Jamiyatdagi unsurlarning avj olishi odamlar o'ratasidagi norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Bu vaziyatda bahslar, munozaralar, qarama -qarshi fikrlar shunchalik ko'p aytiladiki, ba'zida oxiri ko'rinmaydi. Jurnalistika sohasida aynan shu vaziyatda kechayotgan dialog, monolog yoki poliloglar POLEMIKA nomini oladi. Demak, polemika – bu bahslashish san'ati. Ya'ni kimdir, nimanidir himoya qilish, isbot qilish maqsadida ikki yoki undan ortiq insonlar bilan bahsga kirishishdir. Polemika asosan munozarali mavzular haqidagi bahslarda ko'rinadi. Uning etimologik lug'atiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u qadimgi yunoncha "polemikos" so'zidan olingan bo'lib "jangovar, dushmanlik, urush" degan ma'nolarini bildiradi. Urush qaysiki ma'noda, ya'ni bir tomon ikkinchi tomon fikrini rad qilgan holda faktlar asosida isbot etishdir. Demak,



polemika aniq dalil va isbotni talab qiladi. Bu o'rinda axborot oqimini iloji boricha samarali boshqarish, yo'naltirish, ortidan ergashtirish maqsad qilib olinadi. Ya'ni polemika universal vosita bo'lib hizmat qiladi. Polemika yakka hukmronlik qilolmaydi. Unda ikkinchi qarshi tomon (uchinchi, to'rtinchi...) opponent bo'lishi lozim.

Umuman olganda, yuzaga kelgan qarama-qarshi tomonlarning tipologik hususiyatlarini quyidagicha ajratish mumkin.

- 1) kommunikativ vaziyatda ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning mavjudligi (dialog yoki polilog);
- 2) kommunikativ vaziyat ishtirokchilari bir masala bo'yicha qarama-qarshi nuqtai nazarga egaligi;
- 3) kommunikativ vaziyat ishtirokchilarining har birining o'z nuqtai nazarini himoya qilish, tasdiqlash niyati mavjudligiga;
- 4) ko'pincha ilmiy, siyosiy, adabiy va boshqa dolzarb masalalar bo'lgan dialog (polilog) mavzusi;
- 5) polemik vaziyatning paydo bo'lishining sababi, masalan: nomuvofiqlik, bahslash sohasi chegaralarining noaniqligi, foydalanilgan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi, umumiy fikrga zid bo'lgan xulosalar tufayli yakun va mulohazalarning shubhaliligi;
- 6) tuyg'u, haqiqiy muammoni anglash va uni engish uchun vositalarni topish zarurati;
- 7) munozaralar olib borish taktikasi;
- 8) turli darajadagi faoliyat auditoriyasining mavjudligi.

Matbuotda aynan polemik materiallar "Bahs", "Munozara", "Dolzarb" "Muhokama" kabi ruknlar ostida berib boriladi.

Tez-tez polemikaga kirashadigan, yozadigan yoki polemikali gapiradigan odam "a polemicist" – ya'ni polemist deb ataladi. Polemist o'zining pozitsiyasini auditoriga yetkazish usullaridan biri to'g'ri janr tanlay olishidadir. Umuman olganda, biz polemik maqolalarning janr turlarini ikki katta guruhga ajratish mumkin. Bular:

1. Dialog;
2. Monolog.



Birinchi guruhga bahs (tortushuv) kiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida bahs-biror narsa, holat yoki masalani yoqlash maqsadida o'tadigan munozara, tortishuv degan izoh berilgan. Ya'ni ikki shaxsning bir mavzu doirasida ikki xil fikrni ilgari surishi. Agar bahsda ikki tomonning ko'zlagan maqsadi bir bo'lsa, ho'p ho'p. Aks holda – chi? Ya'ni bahsga kirishgan shaxslarning dunyoqarashi va maqsadi har xil bo'lsa, bu kabi bahslar uzoq yillar muhokamada bo'ladi. Misol uchun, 2018 yilda majburiy obunaning ixtiyoriy obunaga aylantirilishi bir qancha gazeta va jurnallarning inqiroziga olib keldi. Aynan shu mavzu oxirgi besh yil davomida va hozirgacha dolzarb bahs munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Misol uchun, "XXI asr" gazetasi bosh muharriri Norqobil Jalilning "Matbuot: yo hayot, yo momot" (2018-yil 20-sentabr, "XXI asr" gazetasi), Bektemir Pirnafasovning "Obuna majburiymi?" (2018-yil 18-sentabr, "Do'stlik bayrog'i" gazetasi), Bahodir Rahmonovning "Matbuot: gazetachilikning og'riq nuqtalari" (2018-yil, 20-oktabr, "Zarafshon" gazetasi), Shuxrat Shokirjonovning "Majburiy obuna sxemasi. Mushtariyga majburan tiqishtirilayotgan nashrlardan nima naf?" (Kun.uz oktabr oyi), Nazira Qurbonning "Matbuotga yordam kerak...(mi)?" (O'zA) S.Alijonovanning "Matbuot o'ladimi" (2018 y) sarlavhali polemik maqolalari matbuotning kelajagi va taraqqiyotiga bog'liq. Ikkinchi guruh biroz kengroq bo'lib, unga:

polemik maqola;
polemik yozishmalar;
polemik sharh;
norozilik maktubi;
polemik portret;
polemik sharh;
polemik e'tirof;
polemik versiya;
polemik sharh kiradi.

Misol uchun, 2022-yil 21-iyun gazeta.uz nashrining xabar berishicha, Quyi palata majlisida Rasul Kusherbayev va Alisher Qodirov o'rtasida bahs yuzaga kelgan. Bunga fuqarolarning shaxsiy elektron ma'lumotlarini olishga imkon beruvchi qonun loyihasi sabab bo'lgan. (Suhbatdan parcha)



- **G'aniyev:** Mantiq tushunilayaptiki, rahbardan o'zini deydik Facebook, Telegram sahifasidagi shaxsiy, oilaviy yozishmalar ham kirib ketadimi yo'qmi?
 - **Kusherbayev:** Yo'q kirmaydi.
 - **G'aniyev:** Qayerdan bilayapsizlar kirmasligini?
 - **Kusherbayev:** 201-1-moddada aniq aytayapti, korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari yoki mansabdor shaxsni ixtiyorida bo'lgan ma'lumotlar deyilgan.
 - **G'aniyev:** Shaxsiy yozishmalar mening ixtiyorimdagi ma'lumotlar-ku.
 - **Kusherbayev:** Siz korxonaning xodimi sifatida o'zingizni shaxsiy ma'lumotlaringiz, sahifangizni ham o'sha korxonaning ixtiyoriga o'tkazgan bo'lsangiz unda berishga majbursiz.
 - **G'aniyev:** Bu yerda korxonani ixtiyorida demayapti. Bu yerda rahbar bilan mansabdor shaxsning ixtiyoridagi deyapti. Yuridik shaxs deganda men tushungan bo'lardim, ertaga bu shaxsiy ma'lumotlarni qayerdan himoya qilamiz?
 - **Kusherbayev:** Undan fuqaro sifatida talab qilmayapti, korxonaning rahbari sifatida tashkilot ixtiyorida bo'lsa berasan deyapti.
 - **G'aniyev:** Lekin u so'z bu yerda yo'q. Korxonalar ixtiyoridagi deb yozinglar, gap yo'q.
 - **Kusherbayev:** Korxonalar rahbarining fuqaro sifatidagi u o'zini, lekin korxonalar rahbari sifatida berishi kerak.
 - **G'aniyev:** Lekin shuni ertaga shunday talqin qilinmasligiga kim javob beradi?
 - **Kusherbayev:** Bundan talqin qilinmaydi!
 - Demak, qonun loyihasining muhokamasi davomida birinchi shaxs o'z fikrini bildirdi. Unga ikkinchi qarshi tomon paydo bo'ldi. Natijada, ikki fikrlilik vujudga keldi. Majlis davomida, boshqa kuzatuvchilar ixtiyoriy ravishda birinchi yoki ikkinchi tomon tarafiga o'g'a boshladi va turli xil fikr paydo bo'ldi. Bahs boshlandi. Biroq bu yerda hali o'z fikrlarini asoslab beradigan fakt va dalillardan foydalanilmadi. Bahsning davomi endi uchinchi shaxs bilan davom etdi.
- Qodirov:** Mana masalan bizning eng ozodliksevar deputatimiz Rasul Xidraliyevichning o'zi bilmayapti, tushunmayapti.



- **Kusherbayev:** Kim aytdi tushunmayapti deb? Kechirib qo'yasiz men yaxshigina tushunib turibman.
- **Qodirov:** To'xtab turing, men siz bilan tortishmoqchi emasman.
- **Kusherbayev:** Qonunni o'qish kerak yaxshilab, qonunni o'qimayapsizlar.
- **Qodirov:** Qonunni o'qiganim uchun aytayapman. Siz bilan polemika qilmoqchi emasman.
- **Kusherbayev:** Fuqaro demayapti-ku, aniq yozayapti. Qonunni o'qimayapsizlar.
- **Qodirov:** Qonunni o'qidik.
- **Kusherbayev:** Meni nimani o'ylayotganimni umuman gapirmang.
- **Qodirov:** Sahnaga chiqvolib, «lo'lichilik» qilmang, eshiting. Savolga javob berish uchun chiqqansiz, men bilan polemika qilish uchun chiqqaningiz yo'q.
- **Kusherbayev:** To'g'ri tushunib turibman, mas'ulman shunga.
- **Qodirov:** Texnikmisiz? ITni tushunasizmi? Elektron ma'lumot nima ekanligini tushunasizmi? Hech nimani tushunmaysiz. Bitta savolga ham javob berolganingiz yo'q. O'shaning uchun deputatlarni qonunni qo'mitaga qaytarib, muhokama qilib, tagiga yetishga chaqiraman.

Bu yerda polemikaning yuqori kulminatsion nuqtasiga chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Bahs ayblov formasida boshlandi va haqorat cho'qqisigacha chiqdi. Odatda, polemikada fakt va isbotning yetarli emasligi, shaxsning his-tuyg'ularini me'yoridan chiqazib yuboradi. Jumalalarga e'tibor bering. "...ozodliksevar deputatimiz", "...o'zi bilmayapti, tushunmayapti". "...Sahnaga chiqvolib, «lo'lichilik» qilmang", "...Texnikmisiz? ITni tushunasizmi? Elektron ma'lumot nima ekanligini tushunasizmi? Hech nimani tushunmaysiz....", "Bitta savolga ham javob berolganingiz yo'q..." deya haqorat toshlarini otib turib polemika qilmoqchi emasligini bir necha marotaba ta'kidlaydi. Vaholanki, polemikaning cho'qqisiga chiqqanini sezmayapti. Bu kabi haqoratlarga nisbatan birinchi tomonda his tuyg'ulariga tayangan so'zlar, haqoratlar uchramadi. Faqatgina "... qonunni o'qish kerak yaxshilab, qonunni o'qimayapsizlar", "Meni nimani o'ylayotganimni umuman gapirmang..." kabi jumalar bilan cheklandi. Bahsning so'ngida, deputat R.Kusherbayev bu qonun muhokamasini shaxsiy adovatga aylantirmaslikni so'radi. Qarshi tomon esa, o'zi bilmagan holda birinchi tomon pozitsiyasiga o'tdi va deputatlarni



“...qonun qonunni qo‘mitaga qaytarib, muhokama qilib, tagiga yetishga chaqiraman...” deya polemikaga yakun yasadi.

Aslida, birinchi tomonning iddaosi qonunni qayta ko‘rib chiqish emasmi?

Shu o‘rinda, hulosasi qismiga donishmadlarimizning naqlini qo‘llaymiz.

“Haqiqat bahslarda tug‘iladi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. N.Qurbon. Tahliliy jurnalistika: o‘quv qo‘llanma / Toshkent. Bayoz, 2019. – 118 b.
2. Ю.С. Аникевич. Полемический жанры на страницах республиканской и областной прессы. УДК 070.001
3. Родос, В.Б. Теория и практика полемики / В.Б. Родос. – Томск: Томский государственный университет им. В. В. Куйбышева, 1989. – 55 с
4. www.gazeta.uz 2022-yil, 21-iyun.